

Date: 23rd January-2025

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI BOSHQARUV

Tillayev Rustamjon Abdumutalibovich

Bosh prokuratura xuzuridagi huquqni muhofaza qilish akademiyasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat turistik faoliyatining asosiy jihatlar, sohani davlat tomonidan boshqarish yo'naliishlari yozilgan

Kalit so'zlar: Turizm, davlat, boshqaruv, faoliyat, turoperator, turagent, maqsadli dastur, investitsiya, manfaat, qo'mitasi, nazorat, prokutatura, Elektron hukumat

Аннотация: В этой статье описаны основные аспекты государственной туристской деятельности, направления государственного управления отраслью

Ключевые слова: туризм, государство, управление, деятельность, туроператор, турагент, целевая программа, Инвестиции, интересы, комитет, надзор, прокуратура, электронное правительство

Annotation: in this article, the main aspects of state tourist activities, directions of state management of the industry are written

Keywords: Tourism, state, management, activity, tour operator, touragent, targeted program, investment, interest, Committee, control, procutatura, e-government

Mamlakatimizda turizmni milliy iqtisodiyotni yuksaltirish, xududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinalarini yaratish, axoli turmush farovonligini yuqori darajaga ko'tarish, mamlakatimizda investitsiya sohasini yangi bosqichga olib chiqishda strategik yo'naliishlarni belgilash yangi O'zbekiston siyosati jarayonida bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro huquq va jahon iqtisodiyotining to'laqonli subyekti sifatida boshqa davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va teng sherklik tamoyillari asosida hamkorlik qilib kelmoqda. Mamlakatimizning yangi davrda butunjahon integratsiyasiga qo'shilishga qaratilgan jadal harakatlari natijasi o'laroq, milliy iqtisodiyotimiz tarixiy natijalarni qayd etmoqda. Xususan, ko'p millatli va ko'p sonli xalqqa ega mustaqil O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti 2024-yilda o'z tarixida ilk bor 100 milliard AQSh dollarlik marrani rasman zabit etishi kutilmoqda⁶. Bunda 2017-yildan boshlab ilgari surilayotgan izchil islohotlarning hissasi beqiyosdir.

Bu borada davlat boshqaruvi sohasida ham islohotlar amalga oshirilmoqda.

Qabul qilinayotgan Dasturlarda turizm sohasi mamlakatimizning xalqaro mavqe'ini belgilash, rivojlangan davlarlar darajasiga ko'tarilishi uchun asosiy baza bolishi va katta zaminni vujudga keltishi belgilanyapti. Mamlakatimizdagi sayyoqlik ob'yektlari tarixiyligi, jozibadorligi bilan dunyo axolisini o'ziga jalb etadi.

Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlaring tarixiy markazlari Umumjahon merosi ro'yxatiga, Shoshmaqom, Navro'z, Boysun madaniy muhiti, Askiya,

⁶ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/16>

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**
International online conference.

Date: 23rd January-2025

Katta ashula, Palov madaniyati va an'anasi, Marg'ilon hunarmandchilik matabining atlas va adres to'qish texnologiyasi kabi nomoddiy madaniy meros namunalari YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Usmon Qur'oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi konselariyasi hujjatlari "Jahon xotirasi" dasturidan joy olgan.

Yurtimiz jahon sayyoqlik bozorida o'z o'rniqa ega bo'lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyoqlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past. Shuning uchun bu borada sezilarli o'sish haqida fikr yuritish ana shu omillarga bog'liq.

Respublikada turizm va sport sohalarini yanada rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash, turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlash orqali turistlar sayohati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning turizm sohasidagi islohotlarni shartli ravishda to'rt bosqichga ajratsak bo'ladi.

Birinchi bosqichda 1992 yilda respublikada «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi tashkil etildi va turizm sohasida barcha tashkiliy, boshqaruvi hamda muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshira boshladi. 1993 yilda «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi Butunjahon turistik tashkilotga (BTT) haqiqiy a'zo bo'lib kirdi va bu o'z navbatida xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

1994 yilda BMT ning YUNESKO tashkilotining hamda O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan Samarqand shahrida Buyuk Ipak yo'lidagi shaharlarda xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi, «Turistik korxonalarни xususiyashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi» chuqur tizimli - institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishda juda katta ahamiyat kasb etdi. 1994-1995 yillar mobaynida «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasining 87,8% turistik ob'ektlari xususiyashtirildi va davlat tasarrufidan chiqarildi. Amalga oshirilgan o'zgarishlar turistlarni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirdi.

Ikkinchi bosqich, 1995 yilda boshlanib, qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash va xalqaro turizmni rivojlantirish» to'g'risidagi Farmoni Buyuk Ipak yo'lida turistik mahsulotni tiklash borasida strategik harakterga ega bo'ldi. Buyuk Ipak yo'lidagi shaharlar va turistik manzillar ro'yxatga olindi, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G'ijduvoniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom al-Motruziy, Mahmudi A'zam, Hakim at-Termizi, Hazrati imom, Shayx Shamsiddin Kulol, Burxoniddin Marg'unoniy, Buxorodagi Chor Bakrlari kabi allomalarimizning maqbaralari ta'mirlandi va ziyoratgoh majmualarga aylantirildi, Toshkent shahrida mutazam ravishda xalqaro turistik yarmarka tashkil etila boshlandi, mehmonxonalardagi xalqaro talablarga javob beruvchi o'rinalar soni 4,8 barobarga ko'paytirildi.

Uchinchi bosqichida, 1999 yil 15 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston turizmini rivojlantirish davlat

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**
International online conference.

Date: 23rd January-2025



dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni e‘lon qilindi. Buning asosida turizm sohasidagi bozor munosabatlari uzil-kesil yo‘lga qo‘yildi hamda dunyo bozori bo‘yicha raqobatbardosh turistlik mahsulot yaratila boshlandi, turizm tizimini boshqarishning markazlashtirilishiga chek qo‘yildi.

Tortinchi va jadal bosqich Yangi O‘zbekiston siyosati bilan boshlangan, xozirga qadar davom etmoqda.

Milliy iqtisodiyotdagи turizmning o‘rnini belgilash va uni boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida qabul qilgan Farmoni tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, iqtisodiyotda birinchi marotaba turizm sohasiga strategik sektor maqomini berilishi bilan ajralib turibdi. Bunday yondashuv turizmni barcha hududlarni va o‘zaro bog‘liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo‘lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tarkibiy o‘zgartirish va barqaror rivojlanishning quadratli vositasiga aylantiradi.

O‘zbekiston Prezidenti Farmoni asosida 2017-yildan tugatilgan «O‘zbekturizm» Milliy kompaniyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi va u turizm sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruvi organlari, mulkchilik shakllari va idoraviy bo‘ysunishidan qat‘i nazar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi⁷.

Shu bilan birga, yaratilgan imkoniyatlarga qaramasdan turizm, madaniy meros sohalarini rivojlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmagan, raqamlashtirish va davlat-xususiy sheriklik, shu jumladan xususiy sektorning ushbu yo‘nalishlardagi rolini oshirish bo‘yicha o‘z yechimini topmagan masalalar mavjud.

Turizm sohasida zamonaviy boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish, ilg‘or xorijiy tajribaga tayanib ushbu yo‘nalishlarda infratuzilmani jadal rivojlantirish, obyektlardan samarali foydalanish, aholiga yetarli shart-sharoitlar yaratish uchun tizimni butunlay raqamli ko‘rinishga o‘tkazish lozim bo‘ladi. Xuddi “Elektron hukumat” loyihasi kabi turizm sohasiga aloqador barcha davlat organlarini “Raqamli turizm” nomli elektron platformaga o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Platformada barcha nazorat organlari, ya’ni bevosita prokuratura organlari bilan birgalikda vakolatli davlat organlari – O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Davlat statistika qo‘mitasi, yong‘in xavfsizligi, davlat moliyaviy nazorat hamda sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati yakdil ish olib borishi lozim.

⁷ <https://inlibrary.uz>

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.
International online conference.**

Date: 23rd January-2025

Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- turizm industriyasi sohasidagi munosabatlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yaratish;
- ichki va jahon turizm bozorlarida turizm mahsulotini siljitishga hamkorlik qilish;
- turistlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni xavfsizligini ta'minlash;
- turizm industriyasida standartlash, litsenziyalash, turizm mahsulotini sertifikatlash;
- turizmni rivojlantirish manfaatlarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasiga kirish, O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketish va O'zbekiston Respublikasi hududiga tashrif buyurish tartiblarini belgilash;
- turizmni rivojlantirish respublika maqsadli dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishga bevosita byudjet ajratmalarini ko'paytirish;
- turizm industriyasiga investitsiyalar kiritish uchun qulay sharoitlarni yaratish;
- soliq va bojxona tizimini tartiblashtirish;
- O'zbekiston Respublikasi hududida turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi va O'zbekiston Respublikasi hududida turizm bilan shug'ullanish uchun chet el fuqarolarini jalb etuvchi turoperator va turagentlarga imtiyozli kreditlar taqdim etish, soliq va bojxona imtiyozlarini berish;
- turizm faoliyatida kadrlar tayyorlashga hamkorlik qilish;
- turizm industriyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;
- xalqaro turizm dasturlarida O'zbekiston turistlari, turoperatorlari, turagentlari va ularning birlashmalari ishtirokiga hamkorlik qilish;
- kartografik mahsulotlar ta'minoti;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda qo'llaniladigan boshqa usullar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasi. 2020 yil 25 yanvar.Xalq so'zi gazetasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2666сонли Qarori;
- 3 "O'zbekiston Respublikasi Turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.01.2019 yil PF-5611-ton.
4. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. INSON HUQUQLARI XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY GENDER MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 33-SON 20.10.2024. 166-170-betlar.

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.
International online conference.**

Date: 23rd January-2025

5.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta'minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o'rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7, ISSUE 10 (30- OCTOBER)

6. <https://lib.jdpu.uz>.

7. <https://www.gazeta.uz>

